

OILAVIY MUNOSABATLARNING BUZILISHI, NIKOH AJRIMLARI
VA ULARNING OQIBATLARI

Boymatova Omina Muhammadjon qizi

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston millliy universiteti «Psixologiya»

yo’nalishi 4-bosqich talabasi

boymatovaumida4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan turli hil kelishmovcholiklar hamda nizolarning yuzaga kelish sabablari hamda ularning oqibatlari haqida yoritilgan. Maqolada mavzuning dolzarbligi, oilaviy nizolarning turli olimlar tomonidan o’rganilgan darajasi va oilaviy munosabatlarni o’rganish uchun metodikalar tahlili ham keltirilgan. Shuningdek maqolada oilaviy nizo va ajrimlar oqibatida farzandlarning ijtimoiy ahloq normasidan og’ish holatlarini statistik jihatdan tahlil qilingan, maqola so’ngida umumiylulosa hamda ma’lum bir tavfsiyalar ham keltirilgan. Bundan tashqari maqolada oila masalasi bilan shug’ulanub kelayotgan oilimlarning oilada erxotin o’rtasidagi nizoning kelib chiqish sabablariga ham alohida to’xtalib o’tilgan va ajrimda so’ng yuzaga keladiga salbiy oqibatlar ayollarda kuchliroq bo’lishi hamda uning bosqichlari haqida ham ma’lumotlar keltirilib o’tilgan. Oila jamiyatning ijtimoiy bo’g’ini sifatida yosh avlodni voyaga yetkazadigan ijtimoiy tizim sifatida jamiyatga hizmat qiladi.

Kalit so’zlar: nizo, kelishmovchiliklar, shaxsiyat, ijtimoiy tizim, bo’g’in, krizis, emotsional tasdiq, ajrim, norozilik kayfiyati.

Аннотация. Данная статья освещает различные виды конфликтов и причин их возникновения в семейных отношениях, а также их последствия. В статье рассмотрены актуальность темы, уровень изученности семейных конфликтов различными учеными и анализ методик, используемых для исследования семейных отношений. Также в статье статистически проанализированы отклонения в социально-этических нормах у детей в результате семейных конфликтов и разводов, в конце статьи приведены общие выводы и определенные рекомендации. Кроме того, в статье отдельно обсуждаются причины возникновения конфликтов между супругами в семьях, занимающихся вопросами семьи, а также указаны, что негативные последствия разводов чаще проявляются у женщин, и представлены этапы этих процессов. Семья, как социальная ячейка общества, служит социальным институтом, воспитывающим молодое поколение и оказываящим влияние на общество.

Ключевые слова: конфликт, разногласия, личность, социальная

система, единица, кризис, эмоциональное подтверждение, развод, настроение недовольства.

Annotation. This article discusses the various types of conflicts and the reasons for their emergence in family relationships, as well as their consequences. The article examines the relevance of the topic, the degree to which family conflicts have been studied by different scholars, and analyzes the methodologies used for studying family relationships. Additionally, the article provides a statistical analysis of deviations in social and ethical norms among children as a result of family conflicts and divorces, and it concludes with general findings and specific recommendations. Furthermore, the article specifically addresses the reasons for conflicts between spouses in families that are engaged in family-related issues, noting that the negative consequences of divorces are more pronounced in women, and presents information about the stages of these processes. The family, as a social unit of society, serves as a social system that raises the younger generation and contributes to society.

Key words: conflict, disagreements, personality, social system, unit, crisis, emotional validation, divorce, mood of discontent

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda oilaviy nizolar, kelishmovchiliklar tufayli ayrim oilalarda ajrim holatlari yuz bermoqda, buning oqibatida esa farzandlar otasiz yoki onasiz voyaga yetishga yetishga majbur bo'lishyabdi. Bu esa o'z navbatida bolaning shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga, uning psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatdigan omil bo'lganligi uchun ham bu mavzu dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga oila jamiyatning bir bo'g'ini sifatida undagi nizo va kelishmovchiliklar jamiyatimiz taraqiyotiga uning ma'naviyatiga, yosh avlodning tarbiyasiga ham bog'liqligi bilan ahamiyatga ega.

Ma'lumki, jamiyatimizdagi oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari asosan er-xotin o'rtada yoki qarindosh-urug' bilan bog'liq bo'ladi. Oilaviy nizolarning eng harakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi mojorodir.

Er va xotin o'rtasidagi mojorolarni bir qancha sabablarini ko'rsatish mumkin Bular:

- turmush o'rtoqlarning bir birlariga qo'yayotgan talablari bo'yicha mos kelmasligi, ba'zi erkaklar ayaliga nisbatan biroz e'tiborsiz bo'lib qolishadi uy ro'zg'or va bola tarbiyasiga umuman vaqt ajratishmaydi. Ayollar esa, nafaqat ish balki uy ro'zg'or ishlari, bola tarbiyasiga ham imkon qadar vaqt ajratishga harakat qilishadi bu esa albatta er-xotin o'rtasidagi nizoning uchqun olishiga sabab yaratadi.

- er-xotin o’rtasida o’zoro hurmatning yo’qligi yaniy, oilada yetakchilik mavqeyini qo’lga kiritish uchun kurash yoki ro’llar almashinuvida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar

- emotsiyal tasdiqqa bo’lgan ehtiyojlarni qoniqtirilmaganligi, er-xotin bir birlarini hissiy va emotsiyal jihatdan tushunmaganligi, turmush o’rtog’i tomonidan kutayotgan kutuvlari o’z tasdiqini topmaganligi oqibatida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar

- oiladagi tarbiya yoki oilaning boshqa masalalari bo'yicha bir-birlariga yordam berish va o'zaro tushunishini hamda qo'llab quvvatlashning yo'qligi

- dam olish usullarining qo'llanilmaganligi va ma'lum ish bilan bandlikning yo'qligi va bunga qo'shimcha tarzda bugungi kunda xiyonatlarning avj olishi hamda asossiz ravishda doimiy qilingan rashq ham er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashishiga sabab bo'layabdi.

Er-xotin o'rtasidagi nizoli vaziyatlar harakterliligi bilan ahamiyatga egadir chunki, bu nizo va majorolar er-xotinni bir birini yaxshiroq tushunishiga hamda muommoni yechimini topishga iroda hamda malaka-ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Shuning uchun ham bu psixologik adabiyotlarda konstruktiv va distruktiv nizolarga ajratiladi yaniy, ajratuvchi va biriktiruvchi nizolar.

Bunda biriktiruvchi nizolarda muommoga yechim topiladi va er-xotin munosabatlari yanada mustahkamlanadi, ajratuvchi nizoda esa muommoga yechim berilmaydi ikki tomonda ham norozilik, etiroz saqlanib, keyinchalik kuchayib navbatdagi nizoni keltirib chiqishiga asos yaratadi.

Qarindoshlar o'rtasida yuza keladigan nizo esa odatda kelinning tushgan xonadonidagi qarindosh urug'lari bilan sodir boladi yoki kuyovning qaynonasi bilan kelishmovchilik chiqadi. Bunday nizolardan hozirgi kunda eng qadimiysi va yana ham ommmalashayotgan nizo bu qaynona va kelin o'rtasidagi nizo hisoblanadi.

Qaynona va kelin o'rtasidagi nizolarning sababi bugungi kunda kelinnig tajribasizligi yani, yosh jihatdan hali turmushga tayyor bo'limgan qizlarning vaqtli turmushga berish va fizalagik jihatdan farzand ko'rishga tayyor bo'lsa ham lekin, psixologik jihatdan hali farzand ko'rishga tayyor bo'limgan qizlar ham ro'zg'or, ham bola parvarishi, ham qaynonani hizmatini qilishdagi kamchiliklar sababli ko'plab nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lamoqda.

Ota-onalar farzandlar munosabatidagi ayrim kamchiliklar va muloqatning pastligi yoki umuman yo'qligi ularning o'ratsida ham kelishmovchiliklarni tug'diradi. Ba'zi ota-onalar farzandlaridagi krzis davridagi bo'layotgan o'zgarishlarni bilmaydilar hatto, ularni tushunmaydilar. Mana shunday holatlarda esa ular o'rtasida ko'zga ko'rinxaydigan devor paydo bo'lganini ba'zi holatlarda

ota-onalar payqashmaydi va bu holat yosh avlodning tarbiyasiga, uning shaxsiyatiga va kognetiv faoliyatini izdan chiqishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

T.V.Andreva oilada mojarolarning yuzaga kelishining sabablarini ko’rsatadi.

1. Alovida shaxs va oila manfatlarininig mos kelmasligi.
2. Ayrim alovida oila a’zolari xatti harakatlarining ijtimoiy normalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, yolg’onchilik, dangasalik, ishning samarasizligi va b.q).
3. Farzandlar tarbiyasiga har ikkala tomon ham o’zicha yondashishi.
4. Yashash sharoitining yomonligi.

Nizoli vaziyatlar har qanday oilada ham u yoki bu masala bo’yicha turli darajadagi nizolar bo’lib turadi lekin, ba’zi bir nizolar ajrim darajasiga ham borib yetadi.

Amerikalik psixolog Blum tomonidan oila buzilishi tufayli yuzaga keladigan oqibatlarning ajrashgan sobiq er-xotinlarga ayniqsa ayollarga tasiri ikki yo’nalishda bo’lish ehtimolini takidlaydi.

Birinchidan, yolg’izlikni his qilish boshlanadi, o’zining hatti-harakatlaridan o’zini gunohkor deb hisoblaydi. O’z shaxsiyatini kamsitib baholash holatlari kuzatiladi.

Ikkinchidan, keying bosqich bir necha oylardan so’ng boshlanib, ruhiy tanglikka tortilish ko’rsatgichi oshib boradi va tushkunlikka tushish holati kuzatiladi.

S.Kraxotvil tomonidan ham ajrim jarayonining quyidagi bosqichlarini ajratadi:

1. Bosh kotarish bosqichi: xorlangan va norozi ayol oz faolligini oshirib, ajrim sodir bolmasligining oldini olib uchun muayyan say’i-harakatlarga kirishadi. Lekin barcha ishlarni xavotirlik va hayajon bilan amalga oshirgani sababli, kop xatolarga yo’l qo’yadi va noma’qul ishlar ham qilib qo’yishi mumkin;
2. Tushkunlikka tushish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon vaziyatni boshqara olmaganligini tan olib, tushkunlik, depressiya holatiga tushadi, va endi o’zini ham ayblay boshlaydi;
3. Bo’yniga olish bosqichi: ajralishni xohlamagan tomon endi mavjud holat bilan kelishib, bunday nikohning bo’lganidan bo’limgani ma’qulligi fikriga keladi.

Oilaviy munosabatlarni aniqlashga qaratilgan Rafiq va Rafiqa metodikasi (E.G’oziev) oilaviy munosabatdan er-xotinning qay darajada qoniqqan yoki qoniqmaganalikni aniqlab berishga qaratilgan. Bu metodika ikkita shkaladan iborat bo’lib, er-xotin bir birini qanchalik tushunishi va turmushidan qanchalik mamnunligini aniqlab beradi.

Ota-onaning farzand o’rtasidagi munosabatini aniqlashga qaratilgan oltimish bitta savoldan iborat (A.Ya.Varga, V.V.Stolin tomonidan yaratilgan) metodikada ham ota-onaning farzandiga bo’lgan munosabatini yoritib beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Oilaviy kelishmovchiliklar tufayli ajrashgan oilalarning farzandlarini hamda to’liq, narmal oilalarning farzandlarini ijtimoiy normalardan og’ish holatlarini tahlil qiladigan bo’lsak, 2024 yilda jami 3364 nafar voyaga yetmagan shaxslar orasida jinoyat sodir etilgan. 2023yilga nisbatan bu ko’rsat 6,5%ga kamaygan bo’lsa ham lekin, nizoli, noto’liq, ajrashgan oilalarda bu ko’rsat yuqoriligidcha turibdi. Quidagi grafikada esa besh yil ichida ajrashgan va nizoli oila farzandlari hamda ajrashmagan narmal oilalarning farzandlari ahloqiy normalani buzib, jinoyat sodir etganliklari to’g’risidagi natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga ko’ra ajrashgan va nizoli oilalarning farzandlarida jinoyatga moyillik kayfiyati ko’proq bo’lishi isbotlandi.



Yana bir tadqiqot natijasiga ko’ra 51 nafar ayol ishtirokida onlayn hamda yakkama-yakka holda konsultantsiya tashkil etildi, ishtirokchilar bilan oilaviy ajrimlarning sabablari va oqibatlari muhokama qilindi. Respondentlarga ko’ra, bitta sabab bilan ajrashib ketgan oilalar juda kam, aksariyat hollarda ajrimlarga bir nechta omillar sabab bo’lgan. Masalan, farzandsizlik, giyohvandlik, algokolga ruju qo‘yish.

Bir guruh ayollar ajrimlarga sobiq turmush o’rtog‘ining ro‘zg‘or boshqarishda mas’uliyatsizligi, mustaqil fikri yo‘qligi, oilaga boshqalarning aralashuvi (qaynona, qayinsingillar), erkakning yomon illatlarga ruju qo‘ygani, oilada ayolga qulday munosabatda bo’lishlari, xiyonat kabi omillarni sabab qilib keltirgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, oilaviy munosabatlardagi o’zoro janjalar, er-xotin yoki qarindosh urug’ bilan sodir bo’ladigan nizolar har bir xonadonda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan holatdir, faqat bu turli sabab va vaziyatlarda va turli darjalarda sodir bo’ladi. Ba’zan esa bu nizolar ajrim bilan

yakunlandi. Buning oqibatida esa nafaqat farzandlar balki, ot-onalar ham ruhiy tushkinlik dipressiya va boshqa psixik holatlarni boshdan kechirishdi.

Oilada turli kelishmovchiliklarni vujudaga kelmasligi uchun har ikki tomon ham qaynona va qaynota ham birdek masuldir. Ular er-xotin o’rtasiga sovuqchilik tushurmasligi, oilaning mustahkamligiga javobgardirlar lekin, aksaryat holatlarda qaynona og’lini kelinidan qizg’anishi, kelinnig tajribasizligi bu mojarolarni avj olishiga zamin yartayabdi oqibatda esa, ajrimlar soni ko’payishiga olib kelayabdi.

Oiladagi nizo va ajrimlarni oldini olish hamda kamaytirish uchun respublikamizda oila insitutlarini ko’paytirib ularga oila va mahalalar bilan ishslashga keng imkoniyat hamda sharoitlar yaratish kerak, chunki oila jamiyatning eng kichik ajralmas bo’g’ini hisoblanadi oila tinch bolsa, yurt farovon bo’ladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. OILA PSIXOLOGIYaSI: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.: “__”, 2007. – 316 b
2. Oila psixologiyasi [M atn]: o ‘quv qoMlanma / D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva -T oshkent:T afakkur B o’stoni,2015. -256b.
3. Akramova F. A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: «Shams ASA», 2006, — 90 b.
4. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o ‘quvchilari uchun o ‘quv q o ‘l. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov va boshq.; G ‘. B. Shoumarovning tahriri ostida; O ‘zbekiston Respublikasi oliy va o ‘rta-maxsus ta ’iim vazirligi, O ‘rta maxsus, kasb-hunar ta ’limi markazi. — T.: «Sharq», 2008. — 296 b.
5. OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI; Z.Abdurahmonova Toshkent Universitet 2023.188 bet.
6. Gazeta. Uz.
7. Kun.uz.